



Inson o'simliklarga qanday zarar yetkazishi mumkin? Misollar keltiring.

## 1. Inson o'simliklarga qanday ta'sir o'tkazadi?

Inson doim yashash uchun qulay sharoit yaratishga harakat qiladi. Ko'pincha bu harakatlari bilan atrof-muhitga zarar keltiradi. Natijada, ko'plab o'simliklar nobud bo'ladi.

Masalan, saksovul-eng zo'r yoqilg'i. U ko'mirdan ham ko'proq issiqlik beradi. Shuning uchun odamlar katta maydonlardagi saksovullarni terib olishgan. Saksovulning o'sib rivojlanishi uchun juda ko'p vaqt ketadi. Shu sababli yangi daraxtlar eskilarining o'rnini qoplay olmaydi. Afsuski, bugungi kunda saksovul yo'q bo'lib ketish arafasida.

### O'SIMLIKLARGA ZARARLI TA'SIRLAR

#### BEVOSITA

O'rmonlarni kesish

O'rmon yong'inlari

O'simliklarni yulish

Payhon qilish

#### BILVOSITA

Havoning ifloslanishi

Suvning ifloslanishi

Tuproqning ifloslanishi

Avtomobillardan chiqadigan zaharli gazlar

## 2. Inson manfaati uchun o'simliklarni o'zgartirish

Odamlar o'simliklarni bundan qariyb 10 ming yil oldin o'stira boshlagan. Oldinlari faqat yovvoyi o'simliklarning meva va urug'larini yig'ishgan. Qachon dehqonchilik bilan shug'ullana boshlagani noma'lum.

Balki yerga to'kilgan urug'lardan ko'p yangi o'simlik paydo bo'lishini bilib olishgandir.

Qadimgi meva va sabzavotlar hozirgilardan umuman farq qilgan.

Masalan, taxminan 1000 yil avval yetishtirila boshlagan qadimiy sabzining nafaqat shakli va rangi, balki mazasi ham zamonaviy sabzidan boshqacha bo'lgan.



**Yovvoyi sabzi**



**Madaniy sabzi**



**Yovvoyi makkajo'xori**



**Madaniy makkajo'xori**

O'simliklarni yetishtirish jarayonida odamlar kelgusi yildagi hosil yanada yaxshiroq bo'lishi uchun eng katta va eng mazali mevalarning urug'larini alohida saralab olishkerakligini tushunishgan.



**1-topshiriq.** Madaniy o'simliklarning yovvoyi o'simliklardan farqlarini yozing.

### 3. Botanika bog'i

O'simliklarni o'rganish uchun maxsus joylar – botanika bog'lari tashkil qilingan. Bu yerga dunyoning turli burchaklaridan o'tlar, butalar va daraxtlar olib kelingan. Ko'pgina botanika bog'larida noyob yoki yo'qolib ketish xavfi yuqori bo'lgan o'simliklar urug'larining kolleksiyalari mavjud. Botanika bog'larida ishlaydigan olimlar ilmiy tadqiqotlar olib boradilar.

Toshkentdagi Botanika bog'ida 6 mingga yaqin turli o'simliklar o'sadi. Ular ichida Shimoliy Amerika va Xitoydan, Kavkaz tog'lari va Yevropadan keltirilgan o'simliklar ham bor. Botanika bog'idagi o'simliklari shunchalik ko'p kislorod ishlab chiqaradiki, u 13 ming kishiga yetadi. Shuning uchun bu bog' majoziy ma'noda "Toshkentning o'pkasi" deb ataladi.



Keyingi darsga Toshkentdagi Botanika bog'ida parvarish qilinayotgan o'simliklardan biri haqida ma'ruza tayyorlang.

#### 4. Daraxtlar uchun nima qila olasiz?

Oddiy qog'oz ishlab chiqarish uchun ko'p daraxt kesiladi. Ammo daraxt kesilishini kamaytirib, o'rmonlarni asrab qolish mumkin. Buning uchun chiqindi tashlayotganda qog'oz ajratib qo'yilsa bo'ldi. Qog'oz chiqindilarni qayta ishlab, ulardan daftar, qog'oz paketlar, qadoqlash uchun turli xil qutilar tayyorlash mumkin. Sifatsiz qog'oz chiqindilaridan esa qurilish materiallari yoki karton ishlab chiqariladi.



**2-topshiriq.** Chiqindini konteynerlarga ajrating. Qanday chiqindini qaysi konteynerga solish kerakligini ko'rsating.



1. Insonning tabiatga zararli ta'siriga misollar keltiring.
2. Insonning tabiatga keltiradigan foydasiga misollar ayting.



Oilangizda so'rovnomaga o'tkazib, bitta oila bir haftada, bir oyda, bir yilda qancha chiqindi tashlashini hisoblab ko'ring. Chiqindining qaysi turlarini qayta ishlashga yuborish mumkin, deb o'ylaysiz?